

MILLIY UYG‘ONISH DAVRIGA OID ILMIY TERMINLARNING
OKKAZIONAL HODISASI YORDAMIDA YASALISHI

Moxinur Qurbonova Abdusoli qizi

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada milliy uyg‘onish davri so‘z egalari tomonidan yaratilgan okkazional ilmiy atamalar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: milliy uyg‘onish davri, jadid, topishma, yurakchilik, qiblanamo.

O‘zbek tilshunosligida milliy uyg‘onish davri deya atalmish muhim bir tarixiy davr asarlari tili bilan bog‘liq tadqiqotlar yaratilgan, bu davr tilining leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari – milliy uyg‘onish davri deya atalmish bu davr o‘zbek xalqi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Zero, bu davrda, avvalo, milliy ozodlik, ma’naviyat, ma’rifat uchun buyuk ota-bobolarimiz tomonidan sabr, matonat, kuchli iroda, birdamlik ila kurash olib borildi. O‘chmas zarvaraqlarga nomlari yozilgan Muqimiy, Furqat, Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon kabi fidoyilarimiz amalga oshirgan ezgu ishlarni o‘rganish, asarlarini tadqiq etish biz uchun ham qarz ham farzdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur” [1] ligi XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari – milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti ijodkorlari asarlarining bebaho ma’naviy merosni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishga asos bo‘lmoqda.

Kompasga nisbatan *qiblanamo* so‘zini, spirtli ichimliklarga esa *masqarotlar* so‘zini qo‘llagan: *Qiblanamo (kompas) degan asbob shimol tarafini bizg‘a ko‘rsatadurki, andan iqlim va mavzeiga qarab qibla tarafini taxmin qilinadur* (Behbudiy, “Atrof. Jihoti asliya. Xarita. Plan”).

Xonimiz ustinda xar nav masqarotlar-da bordur (Behbudiy “Qasdi safar”).

Ilmiy atama: *topishma, yurakchilik, qo‘zg‘atish fe‘li, turish belgilari, tirnoqlar, bir tinish, yarim tinish, qo‘sh nuqta* kabi: *So‘zlami to‘plab, bir-biriga baylab gap tuzishda «o‘y» qulay anglashilsin deb turli belgilar ishlatiladur. Bunlarning hamasig‘a birdan «turish belgilari» yo sodacha «turishlar» deyiladur. Turish belgilaridan qaysi*

birtasini gapning qaysi bo'lagidan so'ng qo'yilishi to'g'rusida har birining o'z o'rnida ma'lumot berilgusidir. Bunda hamasini bir qatordan ko'rib o'tishimiz kerak:

1- «Nuqta» (.)dir. Bunga kelgach o'qug'uchining to'xtashi lozim.
2- «**Bir tinish**» belgisi (;)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi to'xtamaydir; biroq gapdagi so'zlamning munosabatlari uzilmasin uchun bir nafas tolish (bir tinish) vaqti turib o'tadir.

3- «**Yarim tinish**» belgisi (,) dir. Bunga kelgach o'qug'uchi yarim tinish vaqti turib o'tadir.

4-So'rash belgisi (?)dir.

5-Undash belgisi (!)dir.

6-Qo'sh nuqta (:)dir.

7-**Tirnoqlar** (« »)dir.

8-Yoylar ()dir.

9-**To'rtkul yoylari** []dir.

10-Ulkan yoylar { }dir.

11-Chiziq (-)dir.

12-Nuqtalar (...)dir (Fitrat O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Nahv).

Fitrat esa *yurak* so'ziga -chilik affiksini qo'shish orqali ilmiy atama – lirik turni ifodalash uchun *yurakchilik* so'zini hosil qilgan. Ma'lumki, lirik turda muallifning ko'ngil kuylari, ichki kechinmasi aks etadi.

Adabiy asarlarda she'riy ijodlarni uchka ajratadilar:

1.**Yurakchilik** – lirika

2.**Rivoya** – epos.

3.**Tomosha** (Fitrat Adabiyot qoidalari, 78-bet).

S.Normamatov tadqiqotlarida Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan punktuatsiya so'zlariga sinonim sifatida tenglashtirilgan "*mubtada*", "*nuqtalash*" so'zlari ham muallifning ijodiy mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Garchi bu terminlar keyinchalik o'zbek tili uchun norma sifatida qabul qilingan bo'lmasa-da, ularning yaratilishi Abdulla Qodiriyning XX asarning boshlarida o'zbek tilini ilmiy adabiy til darajasiga yuksaltirishni maqsad qilgan Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriy, Munavvarqori, Miyon Buzruk kabi ma'rifatparvarlar qatorida arabcha, ruscha ilmiy istilohlar o'rniga o'zbek tilida ilmiy terminlar yaratish mumkinligini o'z faoliyatida isbotlanganligining amaliy tasdig'idir [2].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023 yilga mo'ljallangan Oliy Majlisga Murojaatnomasi"

Manba: <https://review.uz>. (murojaat sanasi: 28.02.2023)

2. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. Фан. доктори дис. – Т.: 2019. Б. 127.

3. A.Rasulova, & G. Abdullayeva. (2023). FORMAL RESEARCH IN CHILDREN'S POETRY AND ITS ARTISTIC-AESTHETIC FUNCTION. World Bulletin of Social Sciences, 21, 128-130. Retrieved from <https://www.scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2565>

4. Ахмедова, Н. М. (2017). В помощь арифметике. Молодой ученый, (4-2), 14-15.

